

MARG'ILON SHAHRI TARIXI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti o'qituvchisi

Pirimqulova Feruza Husan qizi

Toshkent davlat sharqshunoslik

univerisiteti talabasi

Jo'raboyeva Aziza Ikrom qizi

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada Marg'ilon shahrining qisqacha tarixi, uning toponimikasi, etimologiyasiga doir mavjud ayrim manba va adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar tahlil qilindi hamda ba'zi mulohazalar keltirib o'tildi.

Kalit so'zlar: Marg'inon, Iskandar Zulqarnayn, "Tarixi Farg'ona", "Boburnoma", maysazor-o'tzor, murg' va non, A. Muhammadjonov, Mash'ad mahallasi.

So'nggi yillarda O'zbekiston arxeologlari mamlakatimiz hududida urbanizatsiya jarayonlarining shakllanishi va tadrijiy taraqqiyoti, ilk davlatlarning qaror topishi muammolarini o'rganish borasida qator kashfiyotlar qilishga muvaffaq bo'ldilar. Olib borilgan izlanishlar davomida O'zbekiston hududidagi tarixiy-madaniy o'lkalarda urbanizatsiya jarayonlari qadimiy Sharqdagi ilk sivilizatsiya o'choqlari bilan nisbatan ma'lum bir vaqtda yuz bergenligi va taraqqiy qilganligi aniqlandi. Mana shunday o'ziga xos yo'l bilan rivojlangan tarixiy-madaniy o'lkalardan biri - qadimiy Farg'onadir.

Qadimdan xalqimiz Farg'onani O'rta Osiyoning marvaridi deb atashi bejiz emas. Bu o'lka o'zining geopolitik o'rni bilan O'rta Osiyodagina emas, balki umumjahon tarixinining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ham alohida o'rin egallaydi. Farg'ona vodiysi sharqni g'arb bilan bog'lovchi muhim strategik va

savdo yo'llari yo'nalishida joylashganligi unga alohida mazmun kasb etadi. Qadim va o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'lining asosiy yo'nalishlari ham aynan Farg'ona orqali o'tgan.

Tarixdan malumki, Fargona vodiysida joylashgan ko'plab shaharlar o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan. O'rta Osiyoning ko'pgina qadimgi shaharlaridan farqli o'laroq Farg'ona vodiysidagi Marg'ilon shahri o'zining 2000 yillik tarixi davomida bir joyda joylashgan va taraqqiy etgan [Kuzikulov I. 2014. 33-36 b.].

Marg'ilon shahrining qadimiyligi o'rni va siyosiy tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga qaraganda, qadimgi shahar hozirgi Marg'ilon shahrining Ma'shad mahallasi hududida joylashgan tepalik o'rnidagi bo'lga. Qadimgi shahar 20 hektar maydonni egallagan bo'lib, u hukmdor qarorgohi arki a'lo va bevosita shahardan iborat bo'lga. Bu shahar Farg'onaning asosiy shaharlaridan biri bo'lib, bu yerda hunarmandchilik ancha taraqqiy qilgan. Shaharning tez sur'atlar bilan rivojlanishi Buyuk ipak yo'li bo'ylab harakat qilayotgan savdo karvonlarining Marg'ilon orqali o'tishi uchun zamin yaratgan [Pidayev Sh. 2007. 7-8 b.].

Mahalliy ma'lumotlar bo'yicha shaharning 12 ta darvozasi bo'lga. Buyuk ipak yo'lida joylashgan Marg'ilon aholisi qadimdan atlas to'qish bilan shug'ullanib kelgan va shu tariqa uni jahonga mashhur qilgan. Marg'ilonning shoyi matolari Misr, Eron va Yunoniston, Qashg'ar savdogarlari tomonidan ko'plab xarid qilingan. Shuningdek, Marg'ilonda do'ppido'zlik, misgarlik rivojlangan, shaharda vaqt-vaqt bilan tanga ham zarb qilingan [O'z ME. 260-262 b.] .

VII asr boshlarida arab qo'shinlarining Farg'onaga bostirib kirishi natijasida vodiyning boshqa shaharlari kabi Marg'ilon ham tanazzulga yuz tutdi. Lekin, ko'p o'tmay, shaharda hayot o'z iziga tushdi.

Marg'ilon X-XII asrlarda o'z taraqqiyotining yuqori bosqichlaridan biriga ko'tarildi. Shahar Movarounnahrning yirik siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ilm-fan markazlari qatoridan joy oldi. V. V. Bartold «Mo'g'ullar istilosi davrida Turkiston» asarida Qoraxoniylar davrida ham Marg'ilon viloyatning bosh shahri

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari

hisoblanganligini qayd etgan [www.wikipedia.org. internet sayti]. Numizmatik topilmalarga qaraganda, bu davrda Marg'ilon zarbxonasida ilk bor tangalar zarb qilina boshladi. Shaharda katta bunyodkorlik ishlari olib borildi. Hunarmandchilik tez sur'atlar bilan taraqqiy etdi, tog'-kon sanoati rivojlandi. Natijada Buyuk ipak yo'lining Farg'onadan o'tgan janubiy yo'nalishi Marg'ilon orqali o'tadigan bo'ldi. Bu hol shaharda savdo-sotiqning keng rivoj olishiga turtki bo'ldi. Ma'lumki, farg'onaliklar savdoda so'g'diylardan qolishmagan. Farg'onaliklarning savdoda mohir bo'lganligi, daromadda bir-birlari bilan raqobat qilganliklari to'g'risida Xitoy yilnomalarida ham qayd qilingan[Pidayev Sh. 2007. 7-8 b.].

Mo'g'ullar istilosи davrida Marg'ilon tanazzulga yuz tutdi. Amir Temur va temuriylar davrida shaharda hayot tez jonlanib, Marg'ilon vodiyligi hayotidagi o'z mavqeyini tiklab olishga muvaffaq bo'ldi. Qo'qon xonligi davrida Marg'ilon xonlikning eng rivojlangan shaharlaridan biri bo'lib, uning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida alohida o'rinni egallagan. Shuning uchun bu shaharga, odatda, hokim qilib shahzoda yoki hukmron sulolasiga eng yaqin bo'lган kishi tayinlangan.

Chor Rossiysi Qo'qon xonligini bosib olgach, vodiyligi o'z ma'muriyatining markazi sifatida Marg'ilon shahrini tanlashi, bu yerda mustahkam qal'a barpo etishi va shahar yaqinida Yangi Marg'ilon – Farg'onaga asos solishi ham beziz emas. Bunda Marg'ilon shahrining vodiyning o'sha davr siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni e'tiborga olinganligi tabiiydir. Xususan Marg'ilon Farg'onani Xitoy bilan bog'lovchi strategik va savdo yo'li yo'nalishida joylashganligi inobatga olingan[Pidayev Sh. 2007. 8 b.].

Marg'ilon to'g'risidagi dastlabki yozma ma'lumotlar X asrga taalluqlidir. O'sha davrlarda shahar «Marg'inon» deb atalgan va keyinchalik har ikki nomi ham ishlatilib kelingan [www.wikipedia.org. internet sayti]. Ibratning «Tarixi Farg'ona» qo'lyozma asarida yozilishicha, shaharga 883 yilda asos solingan. Marg'ilon nomining kelib chiqishi haqida aniq bir ma'lumot yo'q. Marg'ilon «murg'» va «yunon» so'zlaridan degan quyidagi mahalliy to'qima rivoyat ham bor.

“Podshohga arzi ahvol qilmoq bo'lib, peshkash uchun non-tuz o'rnig'a bisotlaridagi tovuqlarini pishurub non ilan hazrat Iskandarga tutgon ekonlar. Anda

hazrat Iskandar savol qilibdurlarki: «Bu nimadur?» deb. Anda arz qilguvchi forsiylar javob beribdurlarki: «Murg'u non». Ya'ni tovuq ilan non deganlarida, podshoh Iskandar: «Arzlaringiz nimadur?» deganda, «Arzimiz: bul turgon joyimizni shahar qilib bersangiz ekon» degonlarida umarolari ichindan bir bofarosat sohibi aql kishini ta'yin qilib, shahar qilmoqqa amr qilgon ekonlar.O'shal tovuq ilan non tutgan yerdur Marg'inon shahri ismi bo'lib, Farg'ona umumiyligiga iqlimiga ismdur. Chunonchi, munga dalil Marg'inonda podshoh Iskandar degan iydgoh mazor bordur. Ul kishi tushgan yerlar budur” [Is'hoqxon to'ra Ibrat. 2005. 4 b.].

Ushbu afsona malumotlariga ko'ra, Marg'ilonga Iskandar Zulqarnayn tomonidan asos solingan. Aytishlaricha Zulqarnayn ovqatlangani to'xtaganda, unga Murg' ya'ni tovuq va non berilgan ekan va shundan Murg'inon bo'lib shaharni nomi kelib chiqqan ekan.

Zahiriddin Muhammad Boburning „Boburnoma“ asarida Marg'ilon Farg'onadagi 8 ta shahardan biri ekanligi, shaharning obodligi, shirin mevalari haqida so'z yuritilib, uning „donai kalon“ deb ataluvchi anori va „subhoniy“ navli o'rigi maqtab o'tiladi [Zahiriddin Muhammad Bobur. 2008. 23-24 b.].

Yozma manbalarda Marg'ilon atamasi qanday shakllarda qayd etilgan bo'lmasin, tilshunoslik jihatidan u ikki bo'g'indan iborat nomdir. Uning birinchi bo'g'ini aksariyat “Marg'” atamaning ayrim buzilgan shakllarida “Marg'” va “Mardj” talaffuzida ham qayd etiladi. Atamaning ikkinchi bo'g'ini “on”, “lon” shakllaridagi nom yasovchi morfemalar, ya'ni suffikslar hisoblanadi. Atamaning asliy “Marg'” shakliga berilib, u “Marg'i”, “Marg'iy”, shuningdek, “Marg'oz” shakllarida ham keltiriladi [Muhammadjonov A. 2007. 147-148 b.].

Navoiy asarlari lug'atida “Marg'” so'zi, “o't”, “o'simlik”, ya'ni ko'kat, alaf, o't-o'lan ma'nosida izohlanadi. “Marg'zor” esa o'tloq, hayvonlar o'tlaydigan joy, ya'ni ko'katzor, yayloq, o'tlov va ko'kalamzor deb talqin etilgan. Sug'diy tili asosida yuzaga kelgan “Marg'” so'ziga “on” suffiksining birikishi bilan mazkur atama ko'plik shaklida ifodalananadi. Shu jumladan, Samarqand yaqinida joylashgan qishloq va kanal Marg'ilontepa, Denovning Marg'ilon qishlog'i, Nurotaning mashhur bulog'i jilg'asidan ajralgan Marg'i Sharqiy, Marg'iyozi, Margi

(Mirxon) va Marg'i Mirgadoy (Mirkadak) kabi oronimlarning nomlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Shuni ta'kidlash o'rinniki, «Avesto», Eron, qadimgi Yunon va Rim yozma manbalarida qayd etilgan Katta Xorazm hududida Amudaryoning janubiy tomonida joylashgan o'tloqlarga boy mashhur Marg'iyona o'lkasining nomi ham shaklan, ham ma'no jihatidan Marg'ilon, Marg'inon shahari nomining qadimgi lisoniy nusxasidir [Muhammadjonov A. 2007.148-149 b.].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Marg'ilonda hamma zamonlarda ham hunarmandchilik va savdo-sotiq sohalari yuksak darajada rivojlangani ma'lum. Marg'ilon shahri o'zining 2000 yillik tarixi davomida O'rta Osiyoning fan, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat markazlaridan bo'lib keldi. Shuningdek, Marg'ilonni „Sunduqul orifiyn“ (Oriflar sandig'i) deb ham ataganlar. Bunga sabab esa bu shahardan juda ko'p olimu fuzalo, oriflarning chiqqanidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Is'hoqxon to'ra Ibrat "Tarixi Farg'ona". Nashrga tayyorlovchilar, izoh mualliflari: U. Dolimov, N. Jabborov. Toshkent. 2005.
2. Kuzikulov I. Qo'qon xonligi tarixi. (o'quv-uslubiy qo'llanma) Namangan. 2014.
3. Muhammadjonov A. R. Marg'ilon-Marg'inon nomining ma'nosi haqida // Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent-Marg'ilon. 2007.
4. Pidayev Sh. R. Marg'ilon jahon sivilizatsiyasi tizimida // Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileyiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Toshkent-Marg'ilon. 2007.
5. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" Toshkent. 2008.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (O'z ME). // www. ziyouz. com kutubxonasi. Toshkent. 2000.
7. www.wikipedia.org. internet sayti